

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



## **THE LIFE AND ACTIVITIES OF AKBAR SAID ISLAMKHODJA, THE PRIME MINISTER OF THE KHIVA KHANATE**

*Qurbanjon Khayitboyeva*

*Master's student*

*Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com](mailto:hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com)*

---

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Islamkhodja, Khiva Khanate, politics, culture, society, assassination.

**Received:** 05. 01. 25

**Accepted:** 07. 01. 25

**Published:** 09. 01. 25

**Abstract:** This article extensively covers the life and activities of Akbar Said Islamkhodja, who served as the Prime Minister of the Khiva Khanate, based on a wide range of literature. He (1872–1913) was one of the most influential and effective politicians in the history of the Khiva Khanate. As Prime Minister, he implemented comprehensive reforms aimed at modernizing the state. During his tenure, the Khiva Khanate experienced significant changes in the administrative, economic, and military sectors. Islamkhodja contributed to the development of a modern education and healthcare system by organizing the construction of schools and hospitals. Moreover, the article discusses his foreign policy activities, where he sought to maintain close relations with Russia, while also striving to strengthen local independence through internal reforms. Additionally, it analyzes the resistance Islamic reforms faced from local nobility and religious leaders, resulting in him falling victim to political conspiracy and being killed in 1913.

## **XIVA XONLIGI BOSH VAZIRI VAZIRI AKBAR SAID ISLOMxo'JA HAYOTI VA FAOLIYATI**

*Qurbanjon Hayitboyeva*

*Magistratura talabasi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com](mailto:hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com)*

---

## МАҚОЛА НАҚИДА

---

**Kalit so‘zlar:** Islomxo‘ja, Xiva xonligi, siyosat, madaniy, ijtimoiy, qotillik.

**Annotatsiya:** Maqolada keng adabiyotlar asosida Xiva xonligining bosh vaziri sifatida faoliyat olib borgan Said Islomxo‘ja hayoti va faoliyati haqida keng yoritiladi. U (1872–1913) Xiva xonligi tarixidagi eng nufuzli va samarali siyosatchilardan biri bo‘lgan. U Xiva xonligining bosh vaziri sifatida davlatni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borgan. Uning faoliyati davomida Xiva xonligi ma’muriy, iqtisodiy va harbiy sohalarda sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Islomxo‘ja maktablar, shifoxonalar qurilishini tashkillashtirib, zamonaviy ta’lim va tibbiyot tizimining rivojlanishiga hissa qo‘shtigan. Bundan tashqari maqolada uning tashqi siyosatdagi faoliyati va Rossiya bilan yaqin munosabatlarni saqlashga harakat qilgan bo‘lsa-da, ichki islohotlar orqali mahalliy mustaqillikni mustahkamlashga intilganligi haqida ham bayon etilgan. Shuningdek, Islomxo‘janing islohotlari mahalliy zodagonlar va diniy rahnamolar tomonidan qarshilikka uchragan, natijada u siyosiy fitna qurboni bo‘lib, 1913 yilda o‘ldirilganligi tahlil qilingan.

---

### ПРЕМЬЕР-МИНИСТР ХИВИНСКОГО ХАНСТВА ВАЗИРИ АКБАР САИД ИСЛАМХОДЖА: ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

*Курбанжон Хаитбаева*

*студент магистратуры*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com](mailto:hayitboyeva.qurbanjon.2000@gmail.com)*

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Исламходжа, Хивинское ханство, политика, культура, социальные вопросы, убийство.

**Аннотация:** В статье на основе обширной литературы подробно рассматриваются жизнь и деятельность Саида Исламходжи, который занимал должность премьер-министра Хивинского ханства. Он (1872–1913) был одним из самых влиятельных и успешных политиков в истории Хивинского ханства. В качестве премьер-министра он проводил широкомасштабные реформы, направленные на модернизацию государства. В период его деятельности Хивинское ханство претерпело значительные изменения в административной, экономической и военно-

оборонной сферах. Исламходжа способствовал созданию школ и больниц, тем самым внося вклад в развитие современной системы образования и медицины. Кроме того, в статье также говорится о его внешнеполитической деятельности и попытках сохранить близкие отношения с Россией, несмотря на стремление укрепить местную независимость через внутренние реформы. Также анализируется, что реформы Исламходжи встречали сопротивление со стороны местной знати и религиозных лидеров, в результате чего он стал жертвой политического заговора и был убит в 1913 году.

**Kirish (Introduction).** Xiva xonligi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy davlat tuzilmalaridan biri bo‘lib, o‘z davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xonlikning ichki va tashqi siyosatida davlat arboblari, ayniqsa bosh vazirlar muhim rol o‘ynagan. Ulardan biri Said Islomxo‘ja bo‘lib, u o‘z davrining yetuk davlat arbobi sifatida Xiva xonligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shtigan. Said Islomxo‘ja XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligining bosh vaziri lavozimida faoliyat olib borgan. U nafaqat siyosiy boshqaruvda, balki islohotlar joriy etishda ham katta rol o‘ynagan arboblardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola Said Islomxo‘janing hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda uning Xiva xonligidagi o‘rni, islohotlar jarayonidagi roli va xonlikning taraqqiyotiga qo‘shtigan hissasi ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Said Islomxo‘ja hayoti va faoliyati haqidagi maqolani ochib berishda ilmiy izlanishlarning turli usullari va manbalaridan foydalanildi. Ushbu maqolada quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: Tarixiy-tahliliy usul, qiyosiy tahlil usuli, ilmiy-nazariy tahlil. Ushbu tadqiqot metodologiyalari orqali Said Islomxo‘janing Xiva xonligi bosh vaziri sifatidagi faoliyati va uning siyosiy hamda ijtimoiy o‘rni chuqur tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** Islomxo‘ja 1872-yilda islam ruhoniylari vakili – Said Ibrohimxo‘ja oilasida tug‘ilgan. Otasi Ibrohimxo‘ja Feruzxonning tog‘asi bo‘lib, Xonqa hokimi bo‘lgan, keyinchalik bosh vazir lavozimini egallagandi. Maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo‘ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889 yilda esa 17 yoshli Islomxo‘jani Muhammad Rahimxon II Xivadan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi Hazoraspdek muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib yuboradi. Oradan vaqt o‘tib, tajribaga ega bo‘lgan Islomxo‘ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada ish boshlaydi. U bosh vazir lavozimida Xiva xonligi siyosiy hayotida faol ishtirok etgan, xususan, islohotlar olib borgan va tashqi siyosat yo‘nalishida muhim qarorlar qabul qilgan.

Xonlikni [idora](#) etishdagi xizmatlari uchun „vaziri akbar“ [unvoni](#) berilgan. Bundan tashqari, Islomxo‘ja xonlikda amalga oshirish zarur bo‘lgan islohot rejasini ishlab chiqadi. Islohot dasturi 10 banddan iborat bo‘lib, o‘sha vaqt uchun taraqqiy parvarlik mezonlariga asoslangandi. Isfandiyorxon dasturni ko‘zdan kechirib, 10 bandni ham tasdiqlaydi:

1. Xonlikdagi barcha mansabdar shaxslar davlat tomonidan maosh bilan ta’milnadanilar. Oldingi qoida bo‘yicha, soliqlardan tushgan daromadning bir qismini maosh tariqasida xarajat qilish bekor qilinsin.

2. Dehqonlardan olinadigan yer solig‘i, qazuv puli, yiliga begor qazuvda davlat hisobiga 12 kun tekin ishlab berish bekor qilinadi. Soliq to‘lovchilarning toifasi qa’tiy belgilab qo‘yiladi.

3. Zakot, boj va xiroj soliqlari qayta ko‘rib chiqiladi, savdo sotiq soliqlari muvofiqlashtiriladi.

4. Suvdan foydalanish tartibga solinadi. Suvdan foydalanish miroblar yordamida hukumat nazorati ostiga olinadi.

5. Bozor to‘lovlari tartibga solinadi.

6. Yo‘l qurilishi va ariqlardagi ko‘priklarni yaxshilashga kirishiladi.

7. Barcha shahar va noibliklarda bemorlarni davolash uchun zamonaviy kasalxonalar quriladi, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish yaxshilanadi.

8. Barcha turdagи vaqf yerlar qayta hisob-kitob qilinadi va ulardan tushgan daromadlar madaniyat va maorifni rivojlantirishga sarflanadi.

9. Barcha maktablarda o‘qitish dasturiga, shuningdek, yangi usul maktablarida rus tili, jug‘rofiya, tarix darslik sifatida kiritiladi.

10. Xon xazinasida hisob kitob qattiq nazorat qilinib, alohida kirim-chiqim daftarlari yuritiladi.

Said Islomxo‘janing bosh vazirlik davrida olib borgan islohotlari Xiva xonligining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U xonlikda yer-suv islohotlarini amalga oshirishga harakat qilgan, bu esa dehqonchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga yordam bergen. Shuningdek, u markaziy hokimiyatni mustahkamlashga va soliqlar tizimini tartibga solishga intilgan. Ushbu islohotlar natijasida Xiva xonligi ma’lum darajada iqtisodiy barqarorlikka erishgan va tashqi savdo aloqalarini kengaytirgan. Bundan tashqari, Said Islomxo‘janing tashqi siyosatdagi faoliyati xonlikning xalqaro mavqeini mustahkamlashga qaratilgan edi. Uning tashabbuslari tufayli Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar yaxshilandi, bu esa Xiva xonligining siyosiy mustaqilligini saqlab qolishiga yordam bergen. Said Islomxo‘janing faoliyati va islohotlari Xiva xonligining ichki va tashqi siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, u qarama-qarshi fikrlarni ham keltirib chiqardi. Uning yer-suv islohotlari ayrim boy yer egalari va mahalliy hukmdorlarning qarshiligiga duch keldi, chunki bu islohotlar ularning mol-mulkiga ta’sir qilardi. Shuningdek, markaziy

hokimiyatni mustahkamlash siyosati mahalliy zodagonlar va amaldorlar o‘rtasida noroziliklarni kuchaytirdi.

Tashqi siyosatda esa, Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlash Said Islomxo‘janing siyosiy mavqeini oshirishga yordam bergan bo‘lsa-da, bu xonlik ichida Rossiya ta’sirining ortishi bilan bog‘liq xavotirlarni kuchaytirdi. Ayrim tarixchilar va zamondoshlar uning Rossiya bilan yaqinlashuv siyosatini tanqid qilganlar, chunki bu Xiva xonligining suverenitetiga tahdid sifatida qabul qilingan.

Shu tariqa, Said Islomxo‘janing faoliyati davrida amalga oshirilgan islohotlar va tashqi siyosiy yo‘nalishlar Xiva xonligining barqarorligi va rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa ham, ichki noroziliklar va tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirgan.

Said Islomxo‘ja 1913-yilda sirli sharoitlarda o‘ldirilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, uning o‘limi ichki siyosiy intrigalar va unga qarshi bo‘lgan konservativ guruhlarning fitnasi natijasida sodir bo‘lgan. O‘limining tafsilotlari aniq emas, ammo ba’zi manbalarda u xon saroyi yaqinida otib ketilgani aytildi. Bu voqeа Said Islomxo‘janing modernizatsiya yo‘lidagi faoliyatiga nisbatan norozilik natijasi bo‘lganiga ishora qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Said Islomxo‘ja Xiva xonligida bosh vazir sifatida muhim rol o‘ynagan tarixiy shaxsdir. Uning hayoti va faoliyati O‘zbekiston tarixida katta ahamiyatga ega. Islomxo‘janing rahbarligi ostida Xiva xonligi bir qator ichki va tashqi qiyinchiliklarga qaramay, o‘zining obro‘-e’tiborini saqlab qoldi. Uning merosi tarixiy tahlilchilar va izlovchilar uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi va Xiva xonligining siyosiy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)**

1. Садыков А. С. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. — Ташкент: Фан, 1972.
2. Матниёзов М. Хива хонлигига яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли (XIX аср – XX аср бошлари). 2-нашри. — Урганч, 2004.
3. Қўшжонов О. , Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий жараёнлар ва ҳаракатлар. — Тошкент: “Abu matbuot konsalt” МЧЖ, 2007.
4. A. Sadullayev, A. Sotlikov, O. Abdullayev. “Said Islomxo‘ja”. Toshkent. 2005.
5. Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. номз. дисс. — Тошкент, 2002.
6. Полвонов Н. Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. — Тошкент, 2005.